

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi

adabiyotshunoslik kafedrası

448–guruh bitiruvchisi

Mahmudova Go‘zalning

**“Vasiliy Shukshin va Zulfiya Qurolboy qizi
asarlarida qishloq hayoti mavzusining qiyosiy tahlili”
mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

S.Ho‘jaev,
katta o‘qituvchi

Farg‘ona - 2013

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2013 yildagi
..... yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.Sabirdinov,
filologiya fanlari doktori.

Taqrizchi:

G.Haydarova,
F'I qoshidagi AL o'qituvchisi.

Mundarija

Kirish	
.....	3
1-bob. Yozuvchilar ijodida milliy mentalitet va mahalliy kolorit.	
1. V.Shukshin hamda Z.Qurolboy qizi qishloq yetishtirgan yozuvchilar....	6
2.Asarlarda qishloq odami tasviri.....	15
2-bob. Qishloq hayoti mavzu muammolarining badiiy ifodasi.	
1. Qishloq hayoti mavzusining milliy muammolari.....	27
2. Badiiy uslubdan foydalanish mahorati.....	36
Xulosa.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	48

Kirish

Ma'lumki, badiiy adabiyotning negizini ijtimoiy hayot tasviri tashkil etadi.

Adabiyot tarix va zamonning mevasidir. Har bir zamonning o'z tarixi, tarixining esa adabiyotdagi o'z ifodasi bor.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, «fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'z millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka ishonchli xizmat qilib kelmoqda.»¹

Darhaqiqat, bugungi adabiyotshunoslik uchun qiyosiy tahlil masalalari bugungi dolzarb vazifalar sirasidandir.

Umuminsoniylik milliylik doirasidan unib, ulg'ayadi, olamga yoyiladi.

Qaysiki jahon adabiyoti durdonasi hisoblanmish asarni olaylik unda milliylik masalasi yoqutdek bo'lib yaraqlab, buutn asarga betakror jilo berib turganini ko'ramiz. Zero xalq og'zaki ijodining bosh motivlari ham milliy-ijtimoiy muammolarni ifodalashdan boshlanadi. Masalan, mashhur frantsuz yozuvchisi Stendalning "Qizil va qora" romanining voqealari ham qishloqdan rivojlanib, u yerda voyaga yetgan Jyuleng' Sorelning taqdiri e'tiborga tushadi yoki M.S.Turgenevning mashhur "Mumu" hikoyasidagi Gerasim, "Ovchining xotira daftaridan"dagi qahramoni bo'lgan bolakaylar taqdiri, M.S.Holoxovning "Tinch Don" romanidagi badiiy voqelik aynan qishloq hayoti bog'liq holda bayon etiladi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani qahramoni Zebi ham Andijon qishloqlaridan biridan emasmi?! O'zbek adiblarining deyarli barchasida qishloq hayoti mavzusi o'zining rang-barang ifodasi bilan milliy tusda ajralib

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997. B.: 259.

turadi. Ayniqsa, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi, SHukur Xolmirzaevning “Og‘ir tosh ko‘chsa”, “Bodom qishda gulladi”, “O‘zbeklar” nomli hikoyalarida qishloq odamining samimiyluk jihatlarlari yaqqol seziladi.

Rus hamda o‘zbek xalq ertaklarida ijtimoiy–milliy mummlarni aks ettirilishida ham o‘ziga xos o‘xshash jihatlar borki, ular eslab o‘zimiz guvoh bo‘lamiz. Bular–“Alvon gul” (rus xalq ertagi) va “Uch-opa singillar” (o‘zbek xalq ertagi), “Ayoq bobo” hamda “Zumrad va Qimmmat” kabilardir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, rus qishloq hayotini o‘z ijodida ifoda etgan qator rus yozuvchilari orasida bir shaxs borki, uni rus xalqi bir ovozdan “haqiqiy rus yozuvchisi” jummalari bilan qo‘shib talaffuz qilishni odat qilib olishgan. Bu inson olis Sibir o‘lkasi qishloqlaridan birida ulg‘ayib, kamolotga erishgan Vasiliy Makarovich SHukshindir. Uning oqko‘ngil, to‘g‘ri so‘z, samimiy qishloq kishilari hayotidan samimiy yozilgan asarlari nafaqat rus, balki boshqa xalqlar kitobxonlarining mehrini qozonishga muyassar bo‘lgan. Uning qishloq hayotidan keltirgan hayotiy lavhalari, kishilari taqdiri insonga ulug‘ nehmat bo‘lgan hayotdan bahra olish, undan mahnili foydalanish va o‘zidan yaxshi nom qoldira olish masalalarini badiiy g‘oya sifatida olg‘a suradi.

Bir adabiy yutuqni boshqa bir adabiyot yutug‘i yonida qiyosiy ko‘rish o‘ziga xos tanqidiy xolislikni keltirib chiqarishi tabiiydir. Xuddi shu maqsadda rus qishloq hayoti tasviri ustasi V.SHukshin asarlariga qiyosiy tahlil uchun qishloq odamlariga yuragida mehr bilan adabiy doiraga otilib chiqqan istehdodli o‘zbek yozuvchi ayoli Zulfiya Qurolboy qizining ijodini tanlashni mahqul ko‘rdik. Shu o‘rinda qiyosiy tahlil orqali milliy adabiyot darajasini aniqlash bugungi kungi adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri deb hisoblashga asoslimiz.

Bu ikki adibning ijodiy faoliyati bu yo‘sinda ilk marotaba o‘rganilmoqda.

Ishimizning maqsadi ikki xalq – rus va o‘zbek xalqlari milliy mentaliteti fonida qishloq hayoti mavzusini qiyosiy tahlil etish, shu orqali

milliylik vositasida milliy mentalitetni namoyon bo'lish omillarini belgilab berish, umuminsoniy xususiyatlarni aniqlab ularning milliy adabiy tasvir anhanalariga aylanish mezonlarini belgilab berish ishning oldiga qo'ygan vazifalari sirasiga kiradi.

Tadqiqotimizning obekti rus yozuvchisi Vasiliy Makarovich Shukshinning "Chol, qiz. Oftob" kitobidagi hikoyalari va istehdod bilan o'zbek adabiyotida qalam tebratayotgan Zulfich Qurolboy qizining "Yovuzlik farishtasi" kitobidagi hikoyalari. Tadqiqot uchun ushbu kitoblardagi qishloq hayoti va undagi qishloq odamlari turmushidagi milliy mentalitet masalalarini tanladik.

Ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda rus va o'zbek qishloq hayotining tasviri milliy adiblari ijodi misolida ilk bor tadqiq etilmoqda.

Olib boriladigan ilmiy tadqiqotimizning amaliy ahamiyati ikki xalqning o'ziga xos turmush tarzi, milliy urf-odatlar, xatti-harakatlari, qiliq-odatlarini va shular zamiridagi milliy mentalitetlarini badiiy tasvir omillarini yoritib berish, shuningdek o'xshash jihatlarini aniqlab berishdan iboratdir.

Ish anhanaviy kirish qismidan so'ng asosiy qismni tashqil etuvchi ikki bobdan iborat.

1-bob "Yozuvchilar ijodida milliy mentalitet va mahalliy kolorit" deb nomlanib, 1-fasli "V.Shukshin hamda Z.Qurolboy qizi qishloq yetishtirgan yozuvchilar" deya ataladi. Unda yozuvchilarning biografisini keltirish orqali ularning qishloqdagi hayotining ijodiy kamoloti ga solgan izlarini tahkidlashga intilamiz.

2-faslida "Asarlarda qishloq odami tasviri" mavzusi masalalari ko'rib o'tiladi. Unda hikoyalardagi milliy odatlar, muloqot madaniyatining o'ziga xosliklari vositasida yozuvchining badiiy g'oyani ifodalashi tadqiq etiladi. .

2-bob, "Qishloq hayoti mavzu muammolarining badiiy ifodasi" o'z ichiga ikki faslni olib, 1-fasli "Qishloq hayoti mavzusining milliy xususiyatlari"da qishloq odamlarining qishloq hayoti bilan bog'liq milliy xususiyatlarining hikoyalarda badiiy ifodasi tadqiq etiladi.

So‘nggi “Badiiy uslubdan foydalanish mahorati” faslida yozuvchilarni milliy qishloqlarni tasvirilash mahorati tahlilga tortilai.

Ish xulosalanadi. Shuningdek adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi.

1-bob

Yozuvchilar ijodida milliy mentalitet va mahalliy kolorit.

1. V.Shukshin hamda Z.Qurolboy qizi qishloq hayoti yozuvchilari.

Har bir xalqning o'zining qadrdon yozuvchilari bor. Ular yozgan hayot lavhalari kitobxonga ham o'ta tanish, tasvirlagan tuyg'ulari o'ta dilkashligi, o'zgacha mehrga sazovarligi bilan ajralib turadilar. Bularning zahirida milliy madaniyatning ifodasi, milliylik mohiyati yotishi ma'lumdur.

Adabiyotda "Qishloq mavzusi" nomli atama mavjudki, bu o'ziga xos mazmun va mohiyat, muammo va yechim, ruhiyat va dunyoqarashlar soddagina uyg'unlashgan insonlarning turmushi tasvirlangan o'ziga xos nasriy janrdir.

Xalqimizda "o'zimizniki" iborasi bilan aytash faqat chin mahnoda kishilar qalbidan samimiy mehr bilan o'rin olgan odamga nisbatan aytiladi xolos. Bunday baxt qancha ko'p va qalin varaqlarda kitob yozmasin har qaysi ijodkor ham muyassar bo'la olmaydi.

Rus adabiyotining shunday baxtli yozuvchilaridan biri Vasiliy Makarovich Shukshin edi. Hayoti qishloqdan boshlab turli issiq-sovuqda kechgan bu Sibir kishisi asarlariga singdira olgan qishloqqa bo'lgan mehr parchasi bilan butun rus kitobxoniga zamonaviylik ikir-chikirlari ostida ko'rinmay ketayotgan milliylik mehrini ulasha oldi. U yozuvchi bo'lish uchun qishloq va undagi millatining hayotini tasvirlamadi, balki yuragiga sig'may qolgan o'zidagi mehrni shundayligicha tabiiy yozib qo'ya qoldi. Bu esa unga olamshumul shuhratga yo'g'rilgan, nafaqat rus balki boshqa xalq kitobxonlari mehrini ato etdi.

Bu samimiy sanhatning turli sohasida serunum, qoyilmaqol ijod qila olgan istehdod sohibining biografiyasi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Vasiliy Makarovich Shukshin o'zining hikoyalarida ("Qishloq odamlari"("Selg'kie jiteli"), 1963, "O'sha olislarda" ("Tam,vdali"), 1968, "Xarakterlar",1973), "Mehribonlar"("Lyubavinq") romanida(1-2-

qismlar,1965–1987) va filg‘mlarida (“SHunday yigit bor” (“Jiviyot takoy pareng”),1964, “Pechki-lavochki”, 1972, “Qizil kalina” (“Kalina krasnaya”)1974) – zamonaviy ijtimoiy–psixologik tiplarning turfaligini, xalqning “g‘aroyib” kishilari ahloqiy pok va hayotga talabchanlik mujasam obrazlarni yaratdi. U suratga tushgan “Ko‘l bo‘yida” (“U ozero”) filg‘mi 1979 yilda Davlat mukofoti, Suratga olgan “SHunday yigit bor” (“Jiviyot takoy pareng”) filg‘mi Venetsiya Xalqaro kinofestivalining “Oltin SHer” (“Zolotaya lev”) mukofotini 1964 yilda, “Qizil kalina” 1974 yilda davlat mukofotini olgan.

Vasiliy SHukshin 1929 yilning 25 iyulida Oltoy o‘lkasining Biysk tumani Strostki qishlog‘ida tug‘ildi. Uning ota-onasi mahalliy xalq odamlari bo‘lib, ijtimoiy toifasiga ko‘ra o‘rta hollar hisoblanardi. 1930 –yilda ommaviy kolxozlashtirish boshlanganida, ularni kolxozga qo‘shilishga majburladilar. Oilaning boshlig‘i Makar Leontevich Shukshin shudgorda mexanizator bo‘lib ishlab, qishloqda katta hurmatga ega edi. Ammo uning bu faoliyati ham kelajakda uni qatag‘ondan saqlab qololmadi. Makar Leontevichni 1933 yilda qamoqqa oldilar. Buning qanday sodir bo‘lganligini keyinchalik uning xotini Mariya Sergeevna Shukshana xotirlaydi:

“Erimni olib ketdilar. Qandaydir bo‘lmag‘ur narsani o‘ylab topishibdi. Tunda kirishdi, u pichan ustiga o‘zini otdi-yu, shu joyda unga uchtasi tashlandi. Bolalar qo‘rqib ketdilar. Natalya dag‘-dag‘ titrardi, Vasiliy labini mahkam tishlaganidan qonitib olganicha so‘rardi: Oyi, otamni qayoqqa olib ketishyapti? O‘zini o‘z i mushtlardi...

CHuysk tomonda ko‘p gina mahbuslar ishlatilardi. Ularga sekingina non, kartoshga qistirib o‘tib ketishlar bo‘lardi. CHunki bu musibat ularning o‘zlariningboshlariga ham tushgandi. O‘zimiznikini qarab chiqqib, topolmadik...”

Ikki farzand qo‘lida qolgan 22 yoshli Mariya Sergeevna SHukshina tushkunlikka tushadi. SHunday ma’lumotlar borki, u o‘zi va farzandlarini atrofda yuz berayotganlarni ko‘rmaslik uchun hattoki zaharlamoqchi bo‘lgan.

Lekin bu tushkunlik uzoqqa cho‘zilmaydi. Keyin xushyor tortib, o‘zi uchun bo‘lmasa-da farzandlari uchun yashashi shartligini anglab yetadi. SHunday qilib tez orada Mariya Sergeevna ikkinchi bor hamqishlog‘i Pavel Kuksinga turmushga chiqadi. Keyinchalik Vasiliy SHukshin eslaydi: “ Bu bag‘ri keng, yaxshi inson edi.. Bo‘ydoq bo‘liga qaramasdan onamning ikki farzandi bilan oldi...”

Ammo ularning nikohlari uzoqqa cho‘zilmadi. 1942 yili P.Kuksin frontda halok bo‘ladi.

Ko‘rganlarning aytishlaricha Vasiliy Shukshin odamovi, “o‘ziga o‘zi aql” bola bo‘lib o‘sdi. O‘z tengqurlari bilan muloqotda u qathiy turib, uni Vasya emas, Vasiliy deb atashlarini talab qilardi. Tabiiyki, uning bu xildagi iltimosni tushunishmas va ko‘pincha o‘rtoqlarining ustidan kulishardi. Bunday hollarda SHukshin o‘z xarakteriga xos ish tutib Katuni daryo shohobchasiga borib olib uning orolchasida bir necha kun yashirinib yotardi.

1944 yilda Vasiliy SHukshin Srostkinsk maktabining yettinchi sinfni tamomlab Biysk shahridagi avtotexnikumga o‘qishga kiradi. –lekin uni tugatishga imkoni bo‘lmaydi. Oilani boqish uchun o‘qishni tashlashga va ishga kirishiga majbur bo‘ladi.

Vasiliy SHukshinning ilk ish joyi mexanizatsiya tresti bo‘lib, u Moskva bo‘limiga qarashli edi. 1947 yilda u yerga slevar bo‘lib ishga joylashga SHukshin tez orada dastlab Kalugadagi Turbinniy zavodga, keyin esa Vladimirdagi Traktor zavodiga yuboriladi. 1949 yilda uning ish joyini o‘zgartirishi sodir bo‘ldi. Bu safar SHukshinni Moskva–Kursk temir yo‘lining SHerbinka stantsiyasiga elektrstantsiya qurilishiga jo‘natishadi. SHu yerda(oktyabrda) harbiy xizmatga chaqiruv qog‘ozi keladi.

Radistlik kursi bo‘yicha o‘qishni tugallagach SHukshin 1950 yilda Qora dengiz flotining Sevastopolga o‘rnashgan qismlaridan biriga tushdi. P.Lunev hikoya qiladi: “Vasiliy SHukshin o‘zi bilan birga ikki “birinchi yilchilar” bilan N.F.SHmakov otdeleniyaga birlashtirildi. SHukshin darrovda o‘zining jiddiy, yetuk, harbiy ishni bajarishdagi o‘ta mahsuliyatligi bilan

e'tiborga tushdi. U ishchan, mehnatsevar matros bo'lib, indamay, diqqat bilan ishlardi. (Xizmatdoshlari shuning uchun uni "indamas" – "molg'chalg'nik" deb atashardi) uning sevimli maqoli "Ruhingni tushirma, bilib ishla, qo'rqqoq emassan!" edi. Ishiga mahsuliyatli, e'tiborli matros Vasiliy Shukshin ko'p yildan buyon xizmat qilayotgan malakali mutaxassislar xizmatdoshlari bilan radiovaxtalarda turadi va tabiiyki, tez orada uning darajasi oshiriladi. Unga katta matros unvoni beriladi. U xizmatdoshlari orasida o'ziga xos xarakteri bilan ajoralib turardi. O'rtoqlari bilan muloqotda xizmat haqida kamgapirar, bayramlarda gaplashishni yoqtirmas, mulohazalari yuqori edi...

V.Shukshin ko'p mutolaa qilar, Harbiy dengiz kutubxonasiga tez-tez borib turar edi. U nafaqat uydagilar va yaqinlariga ko'p va tez-tez yozib turardi. Bular yosh Shukshinning adabiy tajribalari bo'lgandi. Aynan Sevastopolda uning yozuvchilik iste'dodi namoyon bo'ladi. Sobiq xizmatdoshlari – matroslar Vasiliy Shukshin 1950–1951– yillarda ularga o'zining "Aravadagi ikkovlon" ("Dvoe na telege") va "Dalada otlar o'ynoqlashdi" ("Razqgralisg' v pole koni») hikoyalarini o'qib berganini eslashadi. Vasiliy Shukshinning xizmatdosh o'rtoqlarining barchasi uning qiziqishlari doirasining kengligini bir ovozda tasdiqlaydilar: u badiiy xavaskorlikda qiziqish bilan qatnashadi, dramatik to'garak tashqillab uni boshqaradi, uninguchun teatr miniatyuralari, sahna ko'rinishchalari yozadi, sport bilan shug'ullanadi, ayniqsa boks bilan..." Bu orada belgilangan muddatga qadar xizmat qilish Vasiliy Shukshinga nasib etmaydi – 1953 yili undan oshqozon yarasi kasalligi topiladi. Shukshinning hikoya qilishicha palubada turganicha o'zini yomon his qilib qoladi. Uni dahshatli og'riqlardan xtsshini yo'qatayozgandi. Buni ko'rib harbiy vrach matroslarga uni zudlik bilan qirg'oqqa eltib qo'yishga buyruq beradi. Davomini o'zini hikoyasida shunday degandi: "Shunaqa, birdan yuqoriga , keyin pastga yiqilasan. Og'riq bo'lsa shunday qichqirtirardi: "Bolalar yetkazib boringlar!" Uyalaman, yig'layman, lekin chidolmayin qichqiraman. Ular eshkakni eshishardi. Menga qaramayin, eshishardi. Yetkazib bordilar". Tez orada Qora dengiz flotining

Bosh harbiy gospi talining meditsina komissiyasi uni xizmatdan chetlashtiradi.

O‘zining qadrdon Strostkisiga qaytgach, vasiliy SHukshin ekster imtihonlarni topshirib qishloq yoshlari maktabiga 5-7-sinflar o‘qituvchisi sifatida ishga kiradi (rus tili va adabiyotidan dars beradi) va shu bilan birga direktorlik qiladi. Ammo o‘qituvchiligi uzoqqa cho‘zilmadi. Avatomobil texnikumiga o‘qisha kirganida tez orada u porshenlar va tsilindrlar uni zeriktrishidan bu uning yo‘li emasligini angladi. Shunday tuyg‘ularni u raykom partiyasiyada yo‘riqchi (instruktor) bo‘lib ishlayotganda ham kechirdi. Va shunda Vasiliy Shukshin Moskvaga jo‘nashga, VGIK (Oliy Davlat sanhat instituti)ning sahnalashtirish fakultetiga o‘qishga kirishga qaror qiladi. Onasi o‘g‘lini bu istagiga qarshilik qilmadi, undan ham buning uchun qo‘lidan kelganicha yordam qildi – sigirini sotib pulini o‘g‘liga tutqazdi. SHunday qilib, 1954 yilning yozida Shukshin Moskvaga keldi. Uning ustida yarim harbiy kostyum, ichidan telg‘nyashka ko‘rinib turgan gimnastyorka, pastida klyosh shim va etik edi. Yuriy Nikulin hikoya qilishicha “Vasiliy VGIKga qanday qilib kirganligini aytib bergandi. U Oltoydan kirish imtihonlarini topshirish uchun kelganida yotoqxonada joy qolmagandi. Shukshin Kotelg‘nichesk qirg‘og‘iga yaqin hiyobonda tunashga qaror qilibdi. Skameykaga uzala tushib endi mudrash bilan uni novcha ozg‘indan kelgan kishi qo‘lida tayoq bilan uyg‘otibdi. Shukshin uni qorovul deb o‘ylab cho‘chib ketibdi.

– Nega bu yerda yotibsan? – so‘rabdi kishi.

– Tunagani joy yo‘q, – javob beribdi Shukshin.

– Menikiga yur, tunagani, – debdi notanish.

Uyiga boshlab borib, choy ichirib, tun bo‘yi u bilan suhbatlashibdi.

Shukshin o‘qiy boshlagan paytda kimdir unga uzoqdan rejissyor Ivan Pirg‘evni ko‘rsatibdi. Shunda Vasiliy SHukshin uyida tunashga qolgan

odam shu ekanligini bilibdi. Faqatgina bir necha yil o'tgandan keyin Vasiliy Pirg'ev bilan bo'lgan suhbatda so'raydi:

– Siz eslaysizmi, Ivan Aleksandrovich, bir kuni siznikida tunab qolganimni?

– Eslolmayman, – javob beribdi Pirg'ev.– Menikida tunaganlar ko'p".

VGIKning sahnalashtirish fakultetiga kelib Vasiliy Shukshin imtihon oluvchilarga o'zining qalin katta daftariga yozilgan hikoyalarini ko'rsatadi. SHukshinning yozuvlari shunchalik kichik, daftar bo'lsa shunchalik katta ediki, qabul komissiyasidagi qizlar o'qishga erinishadi, o'zlarcha uni shunchaki yozishga ishqiboz hisoblashadi. Biroq uni xafa qilmaslik uchun "Sizning ko'rinishingiz boshqacha – o'ziga xos ekan, aktyorlik fakultetiga boring". SHukshinning sobiq kursdoshi kinorejissor A.Mittaning aytishicha, shu yerda SHukshin talabalardan rejissyorlik fakulteti ham borligini biladi. U bo'lsa rejissyorlik nima ekanligi haqida tushunchaning o'zi yo'q edi. O'yladiki, filg'mni qo'yish uchun artistlar yig'iladilar va kartinani qanday olishni qanday o'zaro kelishadilar. Rejissyor kartinaning ho'jayini ekan, asosiy odam. Shunda u rejissyorlikka tpshiradi.

O'qituvchilar uni qabul qilishga cho'chiydilar. U to'g'riso'z edi, nimani gapirish keragu, nimani yo'q –umuman tushunmasdi. O'qituvchilar uning barchaning ustidan "loyqa qiladi" va uning orqasidan barchani ishdan haydashadi. Ammo unga Mixail Romm ishonadi...

Imtihonda Mixail Romm undan so'raydi: "qani, Pg'er Bezuxov Borodino jangida o'zini qanday his qilganini aytingchi." SHukshin men buni o'qiganim yo'q. Kitob juda qalin, qo'lim yetmayapti, deb javob beradi. Romm xo'rsinib, siz nima qalin kitoblarni umuman o'qimaysizmi, deydi. Shukshin, Yo'q. Bittasini o'qiganman, "Martin Iden", judayam yoqqan, deb javob beradi. Romm unga, "Qanaqangi maktab direktorisiz, siz majaniyatsiz kishisiz, deydi. Shunda birdan Shukshin unga qarab biqira boshlaydi: "Siz bilasizmi o'zi, maktab direktori kimligini? Qish uchun avval raisdan undir, keyin shoxchasigacha toshib kel, bolalar sovgomasin deb. Darsliklarni topib

kel, partalarni tuzat, kerosin top, o'qituvchilarni joylashtir. Mashina bo'lsa – dumi bor to'rt taqali– buniyam kolxozdan so'rab ololmaysan. Qayoqqadir yurib, qayoqqadir yugurib, loy bo'lsa – shuncha... Qanday qilib bunda kitob o'qib bo'ladi!" VGIK ayollari xursand bo'lishadi – Rommni haqorat qildi, hozir uni haydaydi, deb. Romm bo'lsa bildirdi: "Faqatgina o'ta istehdodli odamgina shunday noanhanaviy qarashlarga ega bo'lishi mumkin. Men unga besh qo'yaman".

Vasiliy Makarovich SHukshin 1974 yilning 2 oktyabrida uyqusida "Ular Vatan uchun jang qilganlar" filmini suratga olish paytida, 45 yoshida vafot etadi.² Ammo o'zining deyarli qisqa, ammo ijodi ayni kamolotga yetgan davrda hayotdan ketishiga qaramasdan undan adabiyot va sanhat sohasida insonlar uchun betakror badiiy xazinalar qoldi. Uning samimiy umri besamar ketmadi.

Zulfiya Qurolboy qizi - 1966 yili Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug'ilgan. 1989 yili Jizzax pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakultetini bitirgan.

"Turmush", "Yovuzlik farishtasi", "O'lim hech narsa emas" hikoyalar to'plamlari hamda "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" romanlari muallifi. Ayni kunlarda "O'zbekfilg'm" kinostudiyasida ishlaydi. Hikoyasi asosida "Chaqmoq chaqqan tunda" badiiy filhmi suratga olingan. "Yozsiz yil" badiiy filhmining, "Fidoyilar" serialining stsenariy muallifi. Hikoyalari asosida O'zbek davlat drama teatrida "Ayol " spektakli sahnalashtirildi.

Zulfiya Qurolboy qizining keyingi yillarda eng ko'p yozayotgan adibalarimizdan. Uning gazeta va jurnallarda peshma-pesh ehlon qilinayotgan hikoyalarini o'qib, to'g'risi, bu qadar sermahsullik hayratga soladi.

Hayratlana turib, deyarli barcha hikoyalari qo'lma-qo'l bo'lib o'qilayotganiga havasim qilish mumkin. Agar bu ommaviylikning sir-

² Internet ma'lumoti: www.lit.ru/ Русские писатели/ Шукшин/ биография.

asrorlari qidirilsa, yuqorida aytib o'tganimizdek rus yozuvchisi Vasiliy SHukshin kabi u ham qishloq hayotini, qishloq kishisining o'y-tashvishi, ruhiy dunyosi, orzu-havasini juda yaxshi bilgani holda qog'ozga ko'chirishda ekanligi ma'lum bo'ladi. SHu bois obrazlarni to'qib o'tirmaydi, balki aynan hayotdan oladi.

Zulfiya asosan anchayin oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurishimagan, nochor, taqdirning noravon yo'llarida sarsonu sargardon kishilar obrazini yaratadi. U bunday holatlarning qanday qilib vujudga kelish sabablarini izlamaydi, o'ish holatni aynan tasvirlash va o'quvchining ko'ziga ko'rsatish bilan kifoyalanadi.

Aynan tasvir borasida, yaxlit tip yaratiig bobida adibamiz unchamuncha tajribali ahli qalamdan qolishmaydi. Yo'q, u favqulodda tesha tegmagan shakliy izlaniiishr qilmaydi, murakkab ruhiy holatlarda qahramonning ichki dunyosiga sho'ngib ketmaydi, badiiy konfliktlar ham hayotiy ziddiyatlar, o'zaro muloqotlar jarayonida bayon etilaveradi.

Uzoq umr ko'rishdan bo'lak murod-maqsadi qolmagan Nazar chol («O, hayot!»), xokisor Xoliq amaki («Xoliq amaki»), daqqi va johil Dovul tegirmonchi («Tafakkur»), tirnoqqa zor mulla Ashur («Ajal chorlovi») obrazlari juda tiniq tasvirlangan. «Bu yerlarning yozi izzatpshshb bo'ladi, kechikibroq keladi-yu, vaq pushroq ketshiga shoshiladi, go'yo kutguvchilarning badiga urib ketmay degandek: yoz gird atrofini tepaliklar-u, undan narisi purviqor tog'lar bilan qurshalgan dasht qishloqni bir qur ko'zdan kechiradi-da, bahor poyiga ilashib qolgan yashil etaklrini yig'ib olib olislarga jo'nab qoladi. Kuz kelar-kelmas oltindek tovshnayotgan biyday dalalar yozning ortidan unsiz qarab qolgandek tuyuladi».

«Tafakkur» hikoyasining boshlanishi bu. Tasvirning nozikligi, fasl-obrazlar talqini, xazin ohang o'quvchining diqqat-e'tiborini jalb etadi — voqealar sari yetaklaydi.

«Ajal chorlovi» hikoyasining voqeasi favqulodda topilma! O'quvchini qalb, umr va qismat haqida ogir o'ylarga toldiradigan hikoya...

To‘plamga kirgan hikoyalar keng kitobxonshir ommasi tomonidan berilib o‘qilishining yana bir sababi — Zulfiyaning og‘ir qismat sohibalari hayotiga bot-bot murojaat qilishi deb hisoblash mumkin. Ammo uning ijodida negadir ayol obrazlariga munosabat boshqacharoq, aksari hikoyalarda yosh-yosh ayollar o‘ta zabun, o‘ta nochor va behad g‘arib tasvirlangan.

Nahotki, ayollar shu qadar oson aldanadilar? Kimlarningdir qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanib ketaverishdan, nahotki, o‘zlarini asrashga urinmaydilar? Muhabbat va havoyi havasning farqiga bormaydilar?..

«To‘xtab qolgan vaqt suvratlari»dagi Malika unday emas, u tirik inson. Tirikligi — iztirob chekishida. Yashab turgan muhiti ustidan hukm chiqara bilishida.

Ko‘rinadiki, qishloq hayoti tasviri orqali milliy mentalitetni yoritish yo‘li bilan yozuvchi millat taqdiri muammosini badiiy tadqiq etishga kirishgan, millatning porloq kelajagidek porloq orzu-niyatlarning inhikosi sifatida qo‘liga qalam olgan.

2. Asarlarda qishloq odami tasviri.

Har bir millatning millat tariqasida namoyon bo‘lishida uning tashqi belgilari: yuz tuzilishi, kiyimi, tilidan tashqari o‘ziga xos odatlarda aks etuvchi belgilari ham mavjud bo‘ladi.

Badiiy asarlarda qahramon(personaj)larni tasvirlab ularning ruhiyatini ifodalashda aynan shunday milliy belgi detallari orqali muallif milliylikni namoyon qila oladi.

Eslaylik, “O‘tkan kunlar” romanida Abdulla Qodiriy tomonidan o‘zbek milliyligi zo‘r mahorat bilan qaalmga olingan. Asarning so‘nggi, kulminatsiya qismi: Zaynab tomondan Kumushbibini zaharlangan. U taniga tarqalib, singib bo‘lgan zahardan azoblanib, yorug‘ olamga eng so‘nggi nigohlarini tashlaganicha jon talashib yotibdi. Shunda Yusufbek hoji

kelinidan xabar olgani xonaga kiradi. Ming bir azobda o‘rindan qo‘zg‘olishga harakat qiladi: boshidagi ro‘molini to‘g‘irlab, o‘tirishga intiladi.

Mana shu oddiy tasvir bilan A. Qodiriy o‘zbek millati ayollarining ibohayolini ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘lgan. Oddiy bir detal bilan milliy mentalitet ham o‘z ifodasini topgan. Mana shunday milliy xususiyatni kichik detal vositasida

Ifoda eta olishni rus yozuvchisi M.Yu.Lermonovning “Zamonamiz qahramoni” qissasida asar qahramoni Pechorin haqidagi hikoyasida Vladimir Vladimirovich so‘zlarida tog‘liqliklarning xatti-harakatlaridan keltirilgan jummalarda bildirib o‘tiladi. Yahni yollangan tog‘liklar araqani yuqoriga bo‘shroq bo‘lsa-da, ho‘kizlarini baqir-chaqir bilan haydab borishlari va shu yo‘l bilan narxni oshirishga intilishlari detalidir.

Demak, oddiy bir detal vositasida milliy mentalitetni ifodalash mahorati yotishi mumkin.

SHunday qilib, asalarda qishloq odamiyning tasviri deganda avvalo ularning kiyinishidan tashqari quyidagilar mahalliy koloritni ifoda etadi:

- 1)qiliqlari (xatti-harakatlari, jestlari) odatlari;
- 2) muloqot madaniyati;
- 3) milliy odatlar.

Milliy kiyimlardan keyin milliylikni o‘sha xalqning jestlari ham ko‘rsatib turadi. CHunki har bir xalqning o‘iga xos jest belgilari mavjudligi ma’lum va shu jestlargina ulargagina xoslikni an glatadi. Masalan: hindlar hamsuhbatining gapini mahqullagan maqomida boshlarini ikki yonga sarak-sarak etib turadilar. Boshqa ko‘pgina xalqlarda bu inkor mahnosini anglatadi. Yoki arab xalqlarida qo‘lni paxsa qilib gapirishning o‘ziga xos ahamiyati ham shunday hodisadir.

Rus xalqining qishloq odamlari xatti-harakatidagi bunday xussiyatni V.Shukshin zo‘r mahorat bilan tasvirlab, shu orqali qishloq hayotini va undagi odamlarning sodda va samimiy qiyofasini ochib berishga muvaffaq bo‘ladi. SHunday xususiyatlardan biri bu **jestlar, qiliq-harakatlardir**.

E'tibor qilinsa, rus milliy madaniyati rus mentalitetining negizida aks etib turuvchi tabiiy omildir. Bu jihat yozuvchi Vasiliy Shukshin e'tibor markazida turadi. Masalan, muloqot chog'ida turlicha jestlardan foydalanib javob berishni olaylik. Ruslarning bunday odatlari vositasida Shukshin qishloq odamlarining soddaligini ifodalashga muvaffaq bo'ladi.

«Xo'sh, nima bo'пти, oyi? Etagingni qoqib, uydan chiqqinu kelaver. Moskvani tomosha qilib ketasan. Yo'lkirangni yuboraman. Faqat yaxshisi, samolyotda kela qol arzonroq tushadi. Jo'nashing bilan telegramma yubor. Eng muhimi — qo'rqma».

Malanya buvi xatni o'qigach, qurushqoq lablarini kuvacha qilib cho'chchaytirganicha o'ylanib qoldi.

— Pavel uyiga chaqiribdi,— dedi u SHurkaga ko'zoynagining ustidan qarab. (SHurka — Malanya buvining nevarasi, qizining o'g'li. Qizining baxti ham hadeganda ochila qolmadi. Uchinchi bor turmushga chiqqanida kampir nevarasini amallab ko'ndirdi-yu, o'zi bilan olib qoldi. U nevarasini yaxshi ko'rar, ammo qattiq tergap turardi).

Rus kampirining millatiga xos qiliqlariga e'tibor qilinsa o'ylanganida lablarini kuvacha qilib oladi. SHuningdek, ruslarning odatiga xos bo'lgan inkor mahnosida yelkani qisish, qo'lini cho'ntagiga solib, xona bo'ylab aylanishi odatlari ham milily kloritning ifoadsi tarzida keltirilganligini ko'ramiz:

“Shurka stolda dars tayyorlab o'tirardi. Buvisining gapini eshitib **yelkasini qisib** qo'ydi.

— Chaqirayotgan bo'lsa boraqol.

— Senga qachon kanikul berishadi?— so'radi buvisi.

Shurka qulog'ini ding qildi.

— Qaysi biri? Qishki kanikulmi?

— Ha, qanaqasi bo'lardi? YOZGISI emas-ku.

— Birinnchi yanvardan. Nimaydi?

Buvisi yana lablarini kuvacha qilib o‘ylanib qoldi. shurkaning yuragi quvonchli hayajondan orziqib ketdi.

– Men bir narsaga hayronman,— davom etdi Yegor Shurkaga yuzlanib,— nima uchun passajirlarga parashyut berilmaydi.

Shurka yelkasini qisdi. U passajirlarga parashyut berilmasligini bilmas edi. Agar haqiqatai shunaqa bo‘lsa, rostdan ham g‘alati ekan.»³

Shurka qo‘llarini cho‘ntagiga tiqib, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Uning hardamxayol qiyofasn buvisining yuzn singari o‘ychan edi. U, umuman, buvisiga judayam o‘xshardi; xuddi buvisi singari qoqsuyak, yalpoq yuz ko‘zlari ham buvisinikidek kichkina, aqlli. Biroq ularning fehl-atvori bir-bnriga sira o‘xshamasdi. Kampir — serg‘ayrat, baqiroq, shaxtso‘z, serhafsala ayol SHurkaning ham hafsalasi durust, ammo u o‘lguday uyatchan, kamtar va «tegmanozik» edi.»⁴

Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki jest, xatti-harakatlar rus millatiga oid xarakterni yoritib berishga hizmat qilgan.

Qo‘shiq aytish odati:

V.Shukshin tomonidan rus xalqiga oid urf-ofdatlar zo‘r mahorat bilan keltiriladi. Bu faqat rus millatiga xos bo‘lgan o‘ziga xoslik bo‘lib buni boshqa millatlar xarakteridan izlash noo‘rindir. Ulardagi xursandchilikdan so‘ng qo‘shiq hirgoyi qilish odati ham shunday milliy koloritning belgisi sifatida ko‘rinadi:

“– Pivong qoyilmaqom ekan-da, Malang‘ya!

– Sen unaqa zo‘r beraverma, mast bulib qolasan.

– Pivo, bilasanmi...— Yegor bosh chayqab stakanni bo‘shatdi.— Q-hu! Shunaqa deymizu, ammo reaktiv samolyotlar... ular ham

³ В.Шукшин. Чол, киз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980.11-бет.

⁴ В.Шукшин. Чол, киз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980.6-бет.

bari bir xavfli. Narigisi agar buzilsa, pastga toshday sho‘ng‘ib ketadi. Bulari bo‘lsa! Shundoq joyining o‘zida... Keyin suyaklaringingni ham topib bo‘lmaydi. Odamdan kiyim-piyimi bilan bor-yo‘g‘i uch yuz gramm qoladi.

Egor qovoq uyib diqqat bilan pivoga termildi. Kampir shishani olib narigi xonaga kirib ketdi. Yegor ham birpas o‘tirdi-da, sekin chayqalib o‘rnidan turdi.

– Umuman, qo‘rqmanglar,— dedi baland tovushda,—faqat kabinadan uzoqroqqa—orqa tomonga o‘tiringlar-da, uchaveringlar. Xo‘p, men boray...

U lapanglab eshik yoniga keldi, nimpo‘stini va shamkasini kiyib:

– Pavel Ignatevichga salom aytinglar,— dedi.— Ammo-lekin, Malang‘ya, pivoni boplar ekansan. Qoyil..

Kampir Yegorning darrov mast bo‘lib qolganidan bafurjaroq gaplasha olmaganidan norozi edi.

– Kuch-quvvatdan ketibsan, Yegor.

– Charchabman, shunga.— Yegor po‘stinining yoqasiga ilashgan xashakni olib tashladi,— xo‘jayinlarga yozda aytdim — hoy, pichan g‘amlab qo‘yaylik, deb! Qayoqda! Mana bu bo‘rondan keyin yo‘llar muzlab... hammayoq toyg‘onchoq... Bugun kuni bilan yaxmalakda o‘yin tushdik. Xo‘sh keyin, pivong ham o‘tkir ekan...— Yegor bosh tebratib kuldi. — Xo‘p, men ketdim. Qo‘rqmanglar, uchaveringlar. Faqat kabinadan uzoqroq o‘tiringlar. Xayr, ko‘rishguncha...

– Xayr,— dedi SHurka.

Egor chiqdi, tashqaridan uning baland zinadan ehtiyotkorlik bilan tushib borayotgani, hovlidan o‘tgani darvozani gijirlatib ochgani va past tovushda xirgoyi qilayotgani eshitilib turar edi:

“Cheksiz dengiz yastanib yot-a-ar...»

Nihoyat, jimlik cho‘kdi.”⁵

⁵ Василий Шукшин. Чол, киз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент. 1980, 12-13-бетлар.

Qo'shiq aytib, ko'ngil xushlik qilish rus xalqining odatida ikki xil holatda kuzatiladi. Birinchisi o'ta xursandchiliklari bo'lsa, ikkinchisi o'ta og'ir holatda qolganlarida qo'shiq aytish odatlaridir. Yozuvchi tomonidan rus xalqining bu odati qahramon xarakteridagi(qishloq odamining) milliylikni ifodalashda juda o'rinli foydalaniladi.

Yana bir misoli, "Dumbul" hikoyasining qahramoni Uraldagi akasining oldiga ko'rgani borib birga o'tirganlarida qo'yshiq hirgoyi qilib yuborishi. Bu o'rinda yozuvchi sodda va samimiy qishloq kishisining xarakterini zo'r mahorat bilan ochib berganligini ko'ramiz:

...Dumbul akasi Dmitriy, tagin uchta jiyani borligini bilar edi... Qarang, yangasi ham bo'lishi kerakligi negadir sirayam esiga kelmabdi. U yangasini hech qachon ko'rmagandi. Aynan ana shu kelinoyisi hamma ishninch beliga tepdi, butun otpuskani harom qildi. U nima uchundir Dumbulni bir ko'rishdayoq jini suymay qoldi

Aka-uka kechqurun ichishdi, so'ngra Dumbul xirqiroq tovush bilan xirgoyi boshladi:

Tera-a-a-klar...

Tera-a-a-klar...

Yangasi Sofg'ya Ivanovna narigi xonadan mo'raladi.

– Bo'kirmaslikning iloji bormi? Axir, vokzalda emassiz-ku, to'g'rimi?—deya qahr bilan so'radi-da, qasillatib eshikni yopdi.

Akasi Dmitriy o'ng'aysiz ahvolga tushib qoldi. (27-bet)

Dumbul akasin bilan diydorlashganidan mamnun bo'lib bo'lib hirgoyi qilib yuborgan bo'lsa, ikkinchi yana bir o'rinda shahardagi akasining erkin bo'lmagan hayotini ko'rib qaytgan "Dumbul" hikoyasining qahramoni o'zining ona qishlog'iga qaytganida qalbi jo'shiqib ketib qo'shiq hirgoyi qilish manzarasidir:

«– Mayli emas! Mayli emas! CHamadonini ko‘chaga uloqtirmasimdan qorasini o‘chirsin! Bas, yetar!..

Dumbul shosha-pisha zinadan tushib ketdi. U nima qilarini bilmas edi. Tag‘in yuragi zirqirab og‘ridi. Bitta-yarimta o‘zidan nafratlangan kezlarda Dumbul nihoyatda og‘rinar, qo‘rquvga tushar, bo‘ldi endi, hammasi tamom, bunaqa yashashning nima keragi bor, degan xayolga borardi. Bunday paytlarda o‘zini kalaka qiluvchi yoki yomon ko‘ruvchi odamlardan qayoqlargadir ketib qolgisi kelardi.

– Xudo meni nega bunaqa yaratgan-a?—deya alam bilan shivirladi u bostirmada o‘tirarkan.— Nima qilardim shuni... bari bir, tushunmaydi-ku bu xotin... Xalq ijodiyotiga aqli yetarmidi.

U qorong‘i tushguncha bostirmada yolg‘iz o‘tirdi. Yuragining qahrida hanuz nimadir zirqirardi. Keyin akasi Dmitriy paydo bo‘ldi. Dumbulni ko‘rib, uning shu yerdaligini alldaqachon bilgan kishidek, hayron ham qolmadi.

– Uh... mana...— dedi u.— Bu... yana to‘polon qildi. Aravachani bekor qipsan-da.

– Men unga mahqul bo‘lar deb o‘ylovdim. Men keta qolay akajon.

Dimriy xo‘rsindiyu lom-lim demadi.

Dumbul iliq yomg‘ir shivalab turgan bir mahalda qishlog‘iga kirib keldi. Avtobusdan tushib, oyog‘idagi yap-yangi botinkalarini ko‘targancha iliq, namchil yerdan yugurib ketdi. U sakrab-sakrab borarkan, atrofni boshiga ko‘tarib ashula aytardi:

Terakl-a-a-ar...

Osmonning bir burchi bulutlardan arib, tobora moviylashar, hademay quyoshning yuz qo‘rsatishi sezilib turar edi. Yomg‘ir asta-sekin pasayib borar, ko‘lmaklarda yirik-yirik yomg‘ir tomchilari pufak yorardi.” (41-bet)

Ruslarda spirtli ichimlik ichib olib biror narsa haqida so‘zlab berish bog‘liq qishloq odamlarining o‘ziga xos odatlari sifatida qalamga olinadi.

Ruslar xalqining “otamlashish”lari ularning milliy xarakterlarini bildiruvchi belgi ekanligi, shu bilan yozuvchi tomondan qishloqning samimiy, to‘g‘riso‘z odamlari psixologik portretini chizishga muvaffaq bo‘lganligini ko‘ramiz. Malanya xolaning Moskvadagi o‘g‘lini oldiga borish yo‘lini bilib olish uchun “qo‘shni maktab zavxozi” Yegor Lizunovni uyiga taklif etganida unga qo‘lbola pivo quyib berishi, “Mil, pardon, madam!” hikoyasining qahramoni Bronka Pupkovdan ov qilgani kelgan shaharlik sayyohlarning maslahat olishlari yozuvchi tomonidan rus qishloq hayotining yorqin bir belgisi sifatida qalamga olingan.

“...Soat o‘n birlarda ularnikiga qo‘shnisi, maktab zavxozi Yegor Lizunov knrib keldi. Kampir uning uyidagilarga, Yegor ishdan qaytgach, biznikiga kirsin, deb tayinlab qo‘ygan edi. Zavxoz ko‘pni ko‘rgan, samolyotlarda uchgan edi.

Yegor nimpo‘stinini, shapkasini yechdi, keng kafti bilan sochlari oqara boshlagan boshining terini artidi-da, stol yoniga o‘tirdi. Mehmonxonada pichan va egar-jabduq hidi anqib ketdi.

— Xo‘sh, shundoq qilib uchadigan bo‘ldinglarmi?

Kampir qopqoqni ko‘tarib pol, tagiga — podvalga emaklab kirdi, bir zumdan so‘ng «yarimta» olib chiqdi.

— Uchmoqchimiz, Yegor. Qani, bir chekkadan yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntirib ber-chi.

— Tushuntiradigan joyi bormidi buning.— Yegor kampirning pivo quyishiga ochko‘zlik emas, bir qadar bepisand qarab qo‘ydi,— shaharga borasizlar, «Biysk —Tomsk”ka o‘tirasizlar. Poezdga Novosibirskkacha borasizlar-da, shahar havo kassasini so‘raysizlar. Yoki bo‘lmasa to‘g‘ri aeroportga borsa ham bo‘laveradi.

— Shoshma, shoshma! Boplading-ku juda. Bo‘laveradi emish. Sen qandoq qilsa bo‘laverishini emas, qandoq qilish kerakligini ayt-da...

Kampir Yegorning oldiga pivo to‘la stakanni surib, unga qattiq tikildi.

Egor stakanni barmoqlari orasiga olib siladi.

– Xo‘sh, demak avval Novosibirskkacha borasizlar, keyin aeroportga qanaqa qilib borishni so‘raysizlar. Eslab qol, SHurka.

– Yozib ol, SHurka,— buyurdi kampir.

SHurka daftaridan bir varaq toza qog‘oz yirtib olib yozishga tutindi.

– Tolmachevgacha borasizlar. U yerda Moskvaga bilet sotadigan joyni so‘raysizlar. Bilet olasizlar-da, TU– 104» ga o‘tirib, besh soatdan keyin Moskvada bo‘lasizlar.

Kampir iyagini qoqsuyak kaftiga tiragancha Yegorning gaptga tashvishlanib quloq solardi. Yegor o‘ziga benihoya oson ko‘rinayotgan bu safar haqida gapirgan sari kampirni tobora vahm bosmoqda edi.

– Ha, aytmoqchi, rostdan ham Sverdlovskda qo‘nib o‘tasizlar...

– Nega?

– Kerak. Buni bizdan so‘rab o‘tirishmaydi. Qo‘nadi, vassalom.—Egor, endi ichish mumkin, degan qarorga keldi.— Xo‘p bo‘lmasa! Safaringiz bexatar bo‘lsin!

– Ma. Sverdlovskda qo‘nishni o‘zimiz so‘raymizmi yoki hammani qo‘ndiradimi?

Egor ichdi, tomoq qirib, mo‘ylovnnn siypaladi.

– Hammann qo‘ndiradi. Pivong juda zo‘r ekan, Malang‘ya Vasilg‘evna'. Qandoq qilib tayyorlaysan? Mening xotinimgayam o‘rgatsang-chi...

Kampir unga yana bir stakan quyib berdi.

– Xasislik qilmasanglar, pivo ham binoyidek bo‘ladi.

— Qanaqasiga?—tushunmadi Yegor.

– SHakarni ko‘proq solinglar. Hammanglar nuqul arzoniga yugurasizlar. SHarbatga shakarni ko‘proq qo‘shsanglar — pivo jonivor ham pivodek bo‘ladi. SHakar bu yoqda qolib, o‘rniga tamaki solishadi... uyat-e...

– Ha,— dedi Yegor o‘ychan qiyofada. Keyin stakanni ko‘tarib, kampirga, SHurkaga bir-bir qaradi-da, ichib yubordi.— Ha-a,— dedi yana.

– Albatta, shunaqa-da. Ammo Novosibirskda ehtiyot bo‘linglar, adashib ketmanglar...

– Nimaga?

– Ha, endi... shunchaki. Har nima bo‘lishi mumkin.— Yegor papiros tutatdi, mo‘ylovlari ostidan quyuq tutun chiqarib chekishga tushdi.—Eng muhimi, Tolmachevdan kassalarni adashtirib yubormanglar. Bo‘lmasa, naq Vladivostokka uchib ketishinglar mumkin-a!

Kampir hayajonlanib, Yegorga uchinchi stakanni quyib berdi. Yegor uni bnr zumda bo‘shatib, tomoq qoqdi-da, fikrini davom ettira boshladi.”⁶

Parchadan ko‘rinib turibdiki Moskvadagi o‘g‘lini ko‘rgani bormoqchi bo‘lgan kampir Malanya borish yo‘lini bilab olish uchun Yegorni kyiga chaqirtiradi. Rus qishlog‘ning odatiga ko‘ra uni “yarimta” bialn siylab, ma’lumotni olishga shaylandi. Uning ma’lumot beruvchisi ham stakan sari ma’lumotlarini “to‘kib” sochadi. Ammo tez orada mast bo‘lib qoladi va sho‘rlik kampirning yo‘l haqida to‘liq bilolmay qolishi, Moskvaga borishni kechiktirishi bilan hikoya tugaydi. SHu ma’lumot olish epizodining o‘zida ham rus qishlog‘i hayoti ro‘yi-rost, hech qanday bo‘yoqlarsiz ifodalab berilgan.

“Dumdul” hikoyasida uzoqdagi shaharlik akasini oldiga borgan Dumbulning u yerda birgalishib ichishib, bolaliklarini eslashlari keltiriladi.

“Aka-uka kechqurun ichishdi, so‘ngra Dumbul xirqiroq tovush bilan xirgoyi boshladi:

Tera-a-a-klar...

Tera-a-a-klar...

Yangasi Sofg‘ya Ivanovna narigi xonadan mo‘raladi.

⁶ В.Шукшин. Чол, киз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980. 9-10-бетлар.

– Bo‘kirmaslikning iloji bormi? Axir, vokzalda emassiz-ku, to‘g‘rimi?—deya qahr bilan so‘radi-da, qasillatib eshikni yopdi.

Akasi Dmitriy o‘ng‘aysiz ahvolga tushib qoldi.

– Haligi... bolalar uxlayaiti shekilli. Asli... o‘zi yomon xotinmas.

Yana ichdilar. Yoshlik paytlari, ota-onalarini eslab ketishdi.

- Esingdami?— quvonib so‘radi akasi,— E, sen qaerdan ham eslarding! Hali emizikli eding... Meni sening oldingda qoldirishardi, men esa seni o‘pa boshlardim. Bir marta, hatto o‘pavernb ko‘kartirib yuboribman.”⁷

Ma’lumki, muloqot madaniyati ham milliylik xususiyatini o‘zida akas ettirishi bialn muhim ahamiyatga ega. Har bir xalqning o‘ziga xos etnik, ehtiқodiy omillarga asoslangan jihatlari mavjuddir.

Biz tadqiq etayotgan bu ikki yozuvchining asarlarida bunday jihatlarga sinchkovlik bilan e’tibor berilish orqali milliylik ochib berilgan.

Qishloq odamlarining katta-yu kichik bir – birlarini “sen” deb murojaat etishlari qishloq ruhining bir belgisi sifatida “Qishloqilar” hikoyasida keltiriladi. Malanya kampirni uning nabirasi SHura ham, uylariga maslahat uchun chaqirilgan “qo‘shni maktab zavxozi” Yegor ham “sen” deb murojaat qilishlari bialn muallif bunga erishadi.

Vasiliy SHukshinda ruslarning erini xotinining sensirashi holati ham, hattoki xotini eriga laqab qo‘yib chaqirishi hodisalari ham. SHarqda bunday holat ehtiқodiy mehyorlarga mutloqa zid keladi.

“Dumbul” hikoyasining boshidanoq asar qahramoni uning xotini toonidan berilgan laqabi orqali atalib butun asar voqeliklarida haraktlanadi.

“Xotini «Dumbul» deb chaqirardi. Bahzan erkagan bo‘lib ham shunday derdi.

⁷ В.Шукшин. Чол, қиз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980.36-бет.

Dumbulning g‘alati odati bor edi: doimo bir baloga yo‘liqib yurardi. U buni istamas, bundan iztirob chekar, biroq muttasil ana shunday maydachuyda, ammo odamga alam qiladigan savdolarga duchor bo‘laverardi.”⁸

⁸ В.Шукшин. Чол, қиз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980.29-бет.

II bob

Qishloq hayoti mavzusi muammolarining badiiy ifodasi.

1. Qishloq hayoti mavzusining milliy xususiyatlari.

Har bir millat o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib shular orqali ulardagi milliylik ko'zga tashlanib turadi.

Nigohi o'tkir yozuvchi qishloq hayoti beg'uborliklari, serhosil zamin tarovatini kuylashga chog'lanadi. SHu bilan birga uning tomonidan shu zaminda serzahmat mehnati bilan yashayotgan qishloq kishisining taqdiri ham e'tibordan chetda qolmasligi uning chin xalq yozuvchisi mezoniga mos tusha olishini belgilab beradi.

Qishloq hayoti o'ziga xosligi bilan betonlar va asfaltlar orasida tayyor qishloq ho'jaligi mahsulotlarini do'konlardan sotib olib, tayyor sharoitli kvartirada yashashdan butunlay farq qiladi. Qishloqda tomorqadagi polizni yetishtirish, daladagi hosilga ishlov berish va yig'ishtirish kabi muammolari bilan ajralib turadi.

Har ikki yozuvchining ham hikoyalarida ayan shunday qishloq hayotining muammolari, o'ziga yarasha zashmatkash qishloq odamlarining sabotli faoliyatlari qalamga olinadi.

Shukshinning biz yuqorida tadqiq uchun tanlab olgan "Qishloqilar" hikoyasidagi personaj Yegorni olaylik. Qishlog'ida o'ziga xos "ko'cha ko'rgan" odam sifatida gavdalanadi. Bunidan xabari bor Malanya kampir uni uyiga chaqirtirib, qo'lbola pivosi bilan siylab, Moskvaga borish haqida yo'l-yo'riq so'rayotganida u to'rtinchi stakanni ichganidan so'ng mast bo'lib qoladi va asosiy narsa qolib pivo haqida gapirishga tutinib ketadi. Xafsalasi pir bo'lgan kampir pivoli idishni stoldan olib ichkariga olib kirib ketadi. SHu manzarada bir deatl vositasida yozuvchi Yegor (maktab zavxosi)ning kundalik turmushini kolxoz kishilarining turmushi timsolida ifodalaydigan o'rni bor:

«Kampir Yegorning darrov mast bo‘lib qolganidan bafurjaroq gaplasha olmaganidan norozi edi.

– Kuch-quvvatdan ketibsan, Yegor.

– CHarchabman, shunga.—**Egor po‘stinining yoqasiga ilashgan xashakni olib tashladi,**— xo‘jayinlarga yozda aytdim — hoy, pichan g‘amlab qo‘yaylik, deb! Qayoqda! Mana bu bo‘rondan keyin yo‘llar muzlab... hammayoq toyg‘onchoq... Bugun kuni bilan yaxmalakda o‘yin tushdik. Xo‘sh keyin, pivong ham o‘tkir ekan...— Yegor bosh tebratib kuldi. — Xo‘p, men ketdim. Qo‘rqmanglar, uchaveringlar Faqat kabinadan uzoqroq o‘tiringlar. Xayr, ko‘rishguncha...»

Ko‘rinadiki, Yegor tezdagina mast bo‘lib qoldi. Kampir buning sababini uning keksayib qolganiga yo‘ydi. Yegor esa charchab qolganini tahkidlaydi. SHu o‘rinda buning javobi sifatida uning po‘stini yoqasiga ilashib qolgan xashak orqali ifodalab beradi, Yegorning o‘zining tahrifi bilan bu javob to‘ldiriladi. Demak. Yegor kun bo‘yi yo‘llar yurib bo‘lmas bo‘lib ketganligi uchun xashak tashlab chiqqanrdan biri edi.

“Cholning o‘limi” hikoyasida ham qishloq kishilarining qahraton qish kunlarida ham tinib-chinchimay dalada mehnat qilishlarini yozuvchi dialog orqali ifodalab ketadi. O‘lim to‘shagida yotgan cholni bir necha oydan beri yotgan pechning ustidan kravatga olgani kirgan Yegor ismli qo‘shni yigit cholning tashqari qay darajada sovuqligini so‘raganida javob berarkan qishloqning muammosini ham qo‘shib ketishid ma’lum qilinadi.

“Ularning qo‘shnisi kirib keldi.

– Uh-h, sovuqni qara-ya!— dedi u.— SHoshmay tur,Stepan amaki, bnrrpas isinib olay, keyin yoningga borarman. Naq qotib qolayozdim. Nima, tag‘in mazang bo‘lmadimi?

– Ahvolim chatoq, Yegor. O‘laman shekilli.

– Ol-a, vahimangni qara-yu!

– Vahima qilsam-qilmasam — tamom. Sovuq qattiqmi judayam?

—Ellik darajalar bor-ov.— Yegor papiros tutatdi,— Dalada bo‘lsa qordan nom-nishon yo‘q. Traktorlar bilan to‘plashyapti-yu, lekin bu urvoq bo‘larmidi!

– Balki, hali yana yog‘ar...

– Endi xudo biladi. Qani, kel, tushsak-tusha qolaylik...»⁹

Zulfiya Qurolboy qizi SHukshin singari qishloq hayotining va qishloq odamlarining samimiy odatu qiliqlarini emas, asosan qishloq hayotining muammolarini qalamga oladi. U o‘zi ko‘rgan, atrofida yashayotgan qishloq ahlini tabiiy tasvirlashga intiladi, ularning muammoalrini ham tabiiy tarzda xolisona tasvirlashni o‘zining ijodiy mezoni sifatida ko‘radi.

Ma’lumki, mustaqilligimizga qadar mamlakatimiz faqatgina paxta ekaniga iqtisoslashtirilib, aholisining ko‘p qismi qishloqlarda yashaydigan xalqimiz faqatgina paxta yetishtirishga sobiq sho‘rolar hokimiyati tomonidan mahkum etilgan edi. Bunday “chiziqlik”dan chiqqan qishloq kishilari sobiq sho‘rolarning ijrochilari tomonidan qattiq tahqibga olinar va bu ularning hayotiga salbiy tahsir ko‘rsatar edi.

Yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizi shunday butun umr kolxozda – paxta dalarida ishlab keksaygan, daladan boshqa hech narsani – hattoki o‘zligini ham bilmaydigan Holiq amaki haqidagi hikoyasida buni yorqin tasvirlab beradi. U umrida ozib-yozib bir martagina bozorga boradi. Oilasi uchun kerakli narsalarni harid qilib ortiga qaytadi. Ammo uning avtobusdan qishloq bekatida tushishi bilan kolxoz raisining ko‘ziga tushib qolishi bilan taqdirida qora kunlar boshlanib ketadi.

“Paxta terish mavsumi yangi boshlangan vahimali kunlar edi. Biz uchun yozgi tahtal tugab, o‘qishlar boshlangan. Qishloqdan qatnab o‘qiganim bois, har kunisaharlab avtobus bekatiga chiqaman. O‘sha kuni ham tonggi salqindan etim junjikib, dildirab turgandim, yo‘lning narigi tomondan

⁹ Шукшин В.. Чол, қиз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980.103-бет.

yelkasiga qop orqalagancha engashib, pildirab kelayotgan Xoliq amakini ko‘rib qoldim. Qopida olma yo anor bor shekilli, bo‘rtib-bo‘rtib turardi. Mendan to‘rt-besh qadam narida to‘xtab, qopini yerga qo‘ydi. Salom berib ulgurmasimdan «Yaxshimisan, qizim?» deb qo‘ydi horg‘inlik bilan. Xijolat bo‘ldim, ammo foydasiz... Bizdan keyin yanaikkitaqiz keldi. To‘rtovlapshb yo‘lga termilamiz, qani endi birorta ulov ko‘rina qolsa. Boshqa vaqt bo‘lganida, bekatda odam to‘lib ketardi. Avtobuslar ham zir qatnab yotardi. Raisning buyrugiga binoan, terim mavsumi tamom bo‘lguncha shaharga qatnash taqiqlangan. Shuning uchun bekat huvillab qolgandi. Kolxoz idorasi biz turgan bekatdan yuz-yuz ellik qadam narida. Rais istagan vaqtida kabinetidan chiqib, topshirig‘iga quloq osmay, shaharga otlangan kolxozchilarni bekatdan haydab yuborardi. Bizga o‘xshagan talabalarni quvmasdi-yu, qo‘lini paxsa qilib do‘q urardi:

«Qachon senlar ham paxtaga quriysanlar?!» Falokat oyoq ostida deganlaridek, o‘sha kuni ham Narziqul rais idorasidan chiqib qolsa bo‘ladimi? Amakining ochiq-oshkora tipirchilashini ko‘ring: ko‘zlari olazarak, goh idora tomonga, goh avtobus yo‘liga qaraydi. Birorta ulov kela qolsa-yu, raisning ko‘zini shamg‘alat qilib jo‘nab ketsa! Hayajonlanganidan qopini goh ko‘tarmoqchi bo‘ladi, goh yerga qo‘yadi. Narziqul rais ham anoyilardan emas. Yigirma ikki yildan buyon idorada o‘tirib, kolxozni yeb bitirgallardan. Hovliga chiqqan zahoti bekatga qaragan shekilli, shitob bilan shu tomonga kela boshladi.

—Ha, Xoliqboy, yo‘l bo‘lsin?—dedi u yaqinlashganida kinoya bilan atay «boy» so‘ziga urg‘u berib.

— Bozorga.

— Tunov kuni men nima degan edim senlarga?

— Bolalarning patinkasi yirtilibdi. Anorlar pishgan ekan,xotin...

— He, o‘sha xotiningniyam... Anor-panori bilan boshiga tushirmadingmi? Davlat siyosatini tushunmaydigan qanaqa g‘alcha xotin?

— Ikki soatda qaytaman, rais bova. Bolalar yalangoyoq...

– Ko‘tar qopingni! Hoziroq dalaga jo‘na!

– Iltimos...

– E, yaxshilik yoqmagan!..— Narziqul rais yoshiga yarashmagan chaqqonlik bilan qopni amakining qo‘lidan yulqib oldsho kuch bilan asfalg‘t yo‘lga uloqtirdi. Qopning «bo‘g‘zi» yaxshi bog‘lanmagan ekan, gup etib yerga tushdi-yu, har biri kichikroq kosadek keladigan anorlar atrofga sochilib ketdi. Uchchala qiz qo‘rqqanimizdan bir yerga to‘planib olganmiz. Ikki ko‘zimiz Xoliq amakida...

– Moshina bosib, anorlaringyai majaqlab ketsin! Hoziroq dalaga jo‘na! Anorlaringni terib oladigan bo‘lsang, mendan yaxshilik kutma! Senlar nega bu yerda turibsanlar?—Rais endi biz tomonga qaradi.

O‘qiydigan bo‘lsang, betonkaga chiqib, moshina kut. Yo‘qol!

Biz sekin o‘rnimizdan jila boshladik. Xoliq amaki esa...

Rangi quv o‘chib, lablari gezarib ketgan amakining ikki ko‘zi anorlarida...

Yorilib, ezilib yotgan anorlari misol yurak-bag‘ri qon bo‘lgan sho‘rlik banda bir-bir bosib bekatdan uzoqlashdi.

Narziqul rais muhim topshiriqni ado etgandek, qo‘llarini orqaga qilgancha, butini kerib, viqor bilan qarab turardi. Otasini o‘ldirgan yovga qasd qilgandek ko‘zlari g‘azab va nafrat bilan boqardi. So‘nggi vaqglarda uning tajang, ran ko‘tarmas, qaysar bo‘lib qolganini qishloq ahli yaxshi bilardi. Ehtimol, rais erta-indin nafaqaga ketishini o‘ylab shu ko‘yga tushgandir. Keyin kimga buyruq beraman, degan savol uni qiynayotgandir. Har qalay yigirma ikki yil raislik kursisida o‘tirgan, odamlarni «gah» desa qo‘liga qo‘ndirgan odam birdan, taqtsirning taqozosi bilan x,ech kimga aylanib qolsa... Vahimaga tushmay bo‘ladimi?

Ammo o‘sha ko‘ngilsiz voqeadan keyin Narziqul raisni bir umrga yomon ko‘rib qoddim. Shundan so‘ng Xoliq amakini bekatda turganini yo bozor-o‘char qilib yurganini ko‘rmadim.»¹⁰

¹⁰ Зулфия Куролбой қизи. Ёвузлик фариштаси. Ҳикоялар. Тошкент, 2005. 77-бет.

Qishloq odamlari hayotida har bir kishining o‘zining tomorqasi bo‘lib, ular “kolxoz” ishlaridan bir oz bo‘shabroq qolganlarida shu tomorqalaridaga ekilgan ekinlarini parvarish qilishga intiladi. Ammo bunda suv qishloq aholisi uchun eng katta muammo bo‘lib kelgan. Aynan shu suv qo‘yish muammosi vositasida qishloq odamlarining turmush tarzini yozuvchi ifodalab berishga muvaffaq bo‘ladi.

“Onamning aytishicha, bir kuni Xoliq amaki Norto‘xta degan qo‘shnisi bilan suv talashib qopti. O‘sha kuni amaki ham, qo‘shnisi ham tomorqasini sug‘orayotgan ekan. Norto‘xtaning hay-haylashiga qaramasdan, Xoliq amaki suvni o‘zi tomonga burib olavernbdi. Navbat uniki ekan-da. Jahli chiqib ketgan Norto‘xta ketmon dasgasi bilan amakining naq yelkasiga tushiribdi. Xoliq amaki «ih» debdi-yu ariq ichiga cho‘kkalab qopti. «Qachondan buyon tiling chiqib qoldi?» deb baqiribdi haligi qo‘shni. Vaholanki, Xoliq amaki lom-mim demagan ekan.”

Qishloqda odamning qazo qilish manzarasi har ikki yozuvchi qalamida chuqur drammatizm sifatida talqin etiladi. Bunda bir insonning hayot bilan vidolashuvi ikkinchi darajaga aylanib, uning marosimini o‘tkazish muhimroq bo‘lib qolganligi mualliflar tomonidan zo‘r mahorat bila tasvirlanadi.

Stepan amaki (“Cholning o‘limi”da) o‘zi hayot bilan vidolashish manzarasi. Shunda ham qishning sovuqligi haqida, oldiga uzoqdagi o‘g‘li Petka keladigan bo‘lsa katta sarf bo‘lishini o‘ylaydi. Hattoki uylaridagi tovuqni ham “o‘qiydigan” Mixevnaga ham ravo ko‘rmaydi. Yana shu o‘rinda bir detalga e‘tibor berish kerakki, odam o‘limidan oldin “o‘qib” iymonini tozalash kerak” degan qishloq odamlarining urf-odatlarini kiritilganligi.

“– Stepan!— deya chaqirdi kampir.

– Hm?

– Tur, bunaqa qilib yotmagin...

– Qandoq yotay, yo‘qsa, esi past? Birov o‘lay deyaptiyu bu bo‘lsa undoq yotma, bundoq yot, deydi. Qandoq yotishim kerak? To‘rt oyoqlab yotaymi?

– **Mixeevnani aytib kelaymi — o‘qib qo‘yardi?**

– Yig‘ishtirlaring-e!.. Toza yaxshilik qildi-da, menga senlarning xudolaring. Bekorga tovug‘ingni Mixeevna shilib ketadi. Yaxshisi, o‘sha tovuqni Yegorga ber — chiqib go‘rni kavlaydi. Bo‘lmasa, kimga zaril kepti?

– Topilar bitta-yarimta...

– «Topilar» emish... Keyin yurasan uyma-uy izg‘ib shu sovuqda kimning ko‘zi uchib turibdi. Qish kuni bo‘lsa... Yozdayam baharnav edi!

– Nima balo, rostdan ham o‘lyapsai shekilli? Balki tavba-tazarro qilarsan...

– Hozir qildim tavba-tazarruni. Oyog‘im muzlayapti... Eh, xudoyim, xudoyim!—CHol chuqur xo‘rsindi —Balki bordirsan, xudo... osiy bandangni o‘zing kechir.

Kampir tag‘in ho‘ngrab yubordi.”

Zulfiya Qurolboy qizi ham bu mavzuga e‘tiborini qaratib, joni uzilish epizodini tasvirlab beradi. Stepan amaki singari Holiq amakining ham joni uzilish payti tasvirlangan bu epizodda umr bo‘yi faqat mehnat qilib, o‘z qishlog‘idan boshqa yoqqa erkin chiqolmay vafot etayotgan oddiy odamning chuqur drammatizm yotadi. Shu o‘rinda diniy odat – ruhini poklash masalasiga ham e‘tibor beriladi.

« Yarim soatdan keyin miqqagina mulla Doniyorni dikonglatib olib kelishdi. Mulla sal nafasini rostlab olgach, g‘arib va benavo bo‘lib yotgan amakining yoniga cho‘kdi. Tirikligida salom berishga yaramagan odamlar hayrat bilan «tirik murda»ga tikilishar, qiziqsinib, yanada yaqinroq borib ko‘rishga oshiqishardi.

Mulla Doniyor ehtiyotlik bilan Xoliq amakining ko'kragiga qulog'ini ho'yib, yuragi urish-urmasligini eshitdi. Ko'rsatgich barmog'ini uning burniga yaqin keltirib, nafas olish-olmasligini tekshirib ko'rdi-da:

– Bir nafaslik joni borga o'xshaydi. Bola-chaqasi shu yerdami? Olisda ilhaq bo'lib kutayotgan kishisi yo'qmi?—deb so'radi.

– Hammasi shu yerda, — dedi qarindoshlardan biri.

Mulla Doniyor «tirik murda»ga bir necha soniya achinish bilan tikilib turdi-da, so'ng bosh chayqadi:

– Bu dunyoni tashlab ketgisi kelmayopti-yov, sho'rlikning. Boshini to'g'rilab qo'ymabsilar, bo'yni qotib qopti,—dedi u past ovozda va ters o'girilib yotgan amakining bo'ynini sekin-sekin uqalay boshladi. Bir ozdan so'ng yon-verida ixlos bilan o'ziga qarab turganlarni hayratga solshp uchunmi yoki yorug' dunyodan ko'ngil uzolmayotgan amakini «sovutish» uchunmi safsata so'qa boshladi:

– Bu dunyoga hammamiz ham mehmonmiz, Xoliqboy. Ertami-kechmi, bir kuni ketamiz-boramiz. O'lim buyuk mo'hjiza! SHu paytgacha hech kim unga bas kel olmagan. Kel olmaydियam. Umuman olganda, uzoq yashashdan ne foyda? Yeyish-ichish, o'lib-tirilib ishlash, farzandlar taqdirini o'ylab, kuyib-yonish kabi bir xil holatlar oxir-oqibat odamni zeriktiradi. Dunyoning qizligini yoshligingizda olib bo'lgansiz, Xoliqboy. Xudoning irodasi bilan yuz yildan, hattoki, ming yildan keyin tirilib kelgan taqdiringizda ham ahvol o'sha-o'sha. Qorin g'amida yeysiz-ichasiz, ishlaysiz, farzand ortgirasiz... Bizni bu azobdan faqat o'limgina qutqara oladi. O'zingizni bo'sh qo'ying, Xoliqboy. Bo'sh qo'ying..

– Qarang, tegrangizni yetti faripgga o'rab turibdi. O'zingizni farishtalar ixtiyoriga topshiring. Siz u dunyoda shu farishtalar og'ushida bo'lasiz...

Mulla gapirishdan to'xtab, bir zum Xoliq amakining yuziga tikilib qoldi. Eg'tibor bilan, sinchiklab tikildi. Vo ajab, haligina Xoliq amakining ko'tarilib-tushib turgan ko'kragi birdan tinchib qoldi. Mulla Doniyor shoshilinch yo'l-yo'riq ko'rsatdi.

Bir metr oq surpni to‘rt kishi to‘rt tomonidan ushlab, Xoliq amakining bosh tarafida tutib turishdi. Mulla Doniyor ko‘zlarini yumgancha ixlos bilan allaqanday duoni o‘qiy boshladi. Xonaga pashsha uchsa eshitilgudek jimlik cho‘kdi. Amakining qizlari turgan tomondan yig‘lamsiragan ovoz eshitilgandi, erkaklardan biri ularni tashqariga chiqarib yubordi. Mulla duo o‘qish barobarida ko‘l ishorasi qilgan edi, haligi kishilar surpni goh ko‘tarib, gohida amakining yuziga tekkudek qilib tushirib turishdi. Ikki soatdan keyin mulla Doniyor duolarni o‘qib bo‘lib, imo qilgan edi, yordamchilari surpni sekin-sekinlik bilan pastga tushira-tushira, so‘ng amakining yuziga yopib qo‘yishdi.”¹¹

Ko‘rinadiki har ikki hikoyaning qahramoni qishloqning g‘irt mehnatkash odamlari. Butun umrlari “kolxoz”da o‘tgan. Yozuvchilar tomonidan qishloq kishisining o‘ziga xos jihatlaridan bir shunday tasvirlanganki, bu sodda oamlarning hayotining o‘zi dramatism ekanligi kitobxonga oydinlashadi. Bu ayniqsa ularning jon taslim qilayotganlarida ham farzandlari haqida o‘ylashlari nuqtasida yaqqol ko‘rinadi. Stepan amaki uzoqdagi o‘g‘li uning o‘limiga kelib ortiqcha sarf qilib, keyinchalik qiynalib yurmasligi kerakligini kampiriga aytsa, Holiq amaki esa qizlariga uning o‘limida yig‘lab biror kasallik orttirib olmasliklari haqida tashvishlanadi.

Demak, har ikki yozuvchi tomonidan qishloq hayotining tasviri real voqelikka monand ravishda qishloq odamining dramatismning ifodasi tarzida yoritib berishga muvaffaq bo‘lingan. Rus millatida ha o‘zbek millatida ham farzand o‘z jonidan qimmat zaylida munosabat mavjudligi aniqlanadi.

¹¹ Зулфия Қуролбой қизи. Ёвузлик фариштаси. Ҳикоялар. Тошкент, 2005.84-85-бетлар.

2. Badiiy uslubdan foydalanish mahorati.

Yozuvchi tomonidan oldiga qo'yilgan g'oyaviy maqsadning muvafaqqiyatli chiqishida albatta uning badiiy mahorati bilan bog'liq hodisa sifatida keltiriladi. Badiiy mahorat esa zamon, makon va uni haraktaga keltiruvchi omillardan unumli va o'rinli foydalanishi bilan izohlanadi.

Adabiyotning bosh mavzusi kishiga estetik zavq berish barobarida uni hayotga qiziqishini orttirish, hayotning insonga berilgan ilohiy nehmataligini anglatishdir.

Insonning hayotsevarligi uning har qanday qiyinchilik oldida ham o'limga taslim bo'lmay hayotga intilib, kuchli iroda bilan hayotga tashnaligi V.SHukshinning "CHol, qiz va oftob" hikoyasida hamda Zulfiya Qurolboy qizining "O, hayot" hikoyalarida tasvirlab berilgan.

Har ikkisida ham keksayib, eng kerakli sezgi ahzolaridan ayrilib qolgan insonlarning qismati hikoya qilinadi.

"Kunlar oq alanga bilan yonardi. Dov-daraxtlarning tanasi qizib, tuproq qaynab yotar, oyoq ostida qovjirab o't-o'lanlar shitirlar edi.

Faqatgina kechqurunlari salqin tushardi.

Ana shunda tezoqar Katung' daryosi sohiliga munkillagan bir chol chiqib kelar, hamisha bir joyga — qo'porilgan bahaybat ildizga o'tirgan ko'yi quyoshni tomosha qilardi.

Oqshom chog'i quyosh tog'lar ortiga botarkan, nihoyatda ulkan, qip-qizil bo'lib ko'rinar edi.

CHol qimirlamay o'tirardi. Ajin bosgan qoqsuyak,jigarrang qo'llari tizzasi ustida yotardi; yoshlanib turuvchi ko'zlari nursiz. Ingichka bo'ynida kichkina, oqsoch boshi liqillab turar, ko'k chit ko'ylak ostidagi ozg'in kuraklari turtib chiqqan edi.

Bir kuni chol jimgina o'tirarkan, yonginasida allakimning:

– Salom, buvajon!—degan tovushini eshitdi.

Chol bosh irgʻadi.

Yapasqi chamadon koʻtargan qiz uning yoniga oʻtirdi.

– Dam olyapsizmi?

Qariya tagʻin bosh irgʻadi-da:

– Dam olyapman,— dedi.

Ammo qizga qayrilib qaramadi.

Portretingizni ishlasak maylimi?'—deb soʻradi
qiz.

Chol tushunmadi!

— Nima?

– Rasmingizni chizsam maylimi?

Qariya bir muddat jim qoldi. Quyoshga tikilgaycha tuksiz qoshlarini
uchirdi.

– Men chiroyli emasman-ku,— dedi.

– Nega?— qiz bir zum dovdiradi.— Yoʻq, siz chiroylisiz, buva.

– Quruq suyak boʻlsam...

Qiz cholga uzoq termildi, keyin yumshoq kafti bilan
uning choʻpdek ingichka barmoqlarini siladi va:

–Siz judayam chiroylisiz, buva. Rost,— dedi.

Qariya mahyus kulimsiradi.

–Ha, mayli, chizsang-chiza qol.

Qiz chamadonini ochdi.

... Ertasi oqshom chol va qiz ildiz yonida oʻtirishardi.

Qiz shosha-pisha chizar, qariya esa quyoshga tikilgan
soʻzlar edi:

– Hamma vaqt halol yashadik— nolisam, gunoh boʻladi. Duradgor
edim, doimo ish topilardi. Oʻgʻillarim ham shu hunarni qilishdi. Bir emas,
toʻrttasi urushda yoʻq boʻlib ketdi. Ikkitasi qolgan. Stepan bilan birga
yashayman. Vangʻka boʻlsa shaharda turadi, Biyskda Qurilishda prorab boʻlib

ishlaydi. Tirikchiligidim yaxshi, deydi ishqilib... Mehmonga kelib-ketishadi. Nevaralarim ham ko‘p, menya yaxshi ko‘rishadi. Hozir hammasi shaharda...

Qiz cholning burishiq qo‘llarini chizarkan, shoshar, asabiylashib, tez-tez o‘chirardi.

— Yashash qiyin bo‘lgandir?— deya so‘rab qoldi u tuyqusdan.

– Nimasi qiyin?—taajjublandi chol.— Aytdim-ku, yomon yashamadik, deb.

–O‘g‘illaringizga achinarsiz-a?

– Bo‘lmasam-chi?— Chol battar ajablandi.— To‘rt o‘g‘ildan ayrilish, hazilmi senga?

Qiz shu tobda o‘zining cholga achinishini ham, uning g‘ayritabiiy xotirjamligidan hayron qolishini ham bilmas edi.

Quyosh yana tog‘lar ortiga cho‘kdi. Yana shafaq ohista lov-lov yona boshladi.

Ertaga yog‘ingarchilik bo‘ladi,— dedi chol.

Chol uchinchi kuni ham, to‘rtinchi kuni ham kelmadi.

Qiz uning uyini axtarib ketdi.

Topdi. Besh devorli qo‘ra hovlisida, burchakdagi tunuka tomli bostirma tagida ellik yoshlar chamasidagi kishi dastgohda qarag‘ay taxtasini randalar edi.

– Salom,— dedi qiz.

Kishi boshini ko‘tarib, unga qaradi, ko‘rsatkich barmog‘i bilan peshonasidagi terni sidirdi, kallasini qimirlatib:

– Salom,— dedi.

– Ayting-chi, bu yerda bir bobo yashaydimi, haligi...

Boyagi kishi qizga diqqat bilan g‘alati tikildi. Qiz jimib qoldi.

– Yashardi,— dedi boyagi kishi.— Mana, endi men unga oxirat uchun uy yasayapman.

Qizning og‘zi ochilib qoldi.

– U... o‘ldimi, a?

– Qazo qildi.— Boyagi kishi randasini qattiq shig‘irlatdida, yana taxta ustiga egildi, randani bir marta yurgizdi-da, qizga qarab:

- Senga nima kerak edi?— deb so‘radi.

– O‘zim... men uning rasmini chizayotgan edim.

SHu o‘rinda badiiy xulosa keltirib o‘tiladi va insonning umrining oxiriga qadar har qanday turmush sinovlariga taslim bo‘lmay kurashishi uning burchi ekanligi tahkidlanadi, qishloq kishisining irodasi kuylaneadi.

– Ha-a...— duradgor yana randasini qattiq shig‘illatdi.

–Ayting-chi, u ko‘rmidi?— deb so‘radi qiz uzoq jimlikdan so‘ng.

– Ko‘r edi.

– Anchadan berimi?

– O‘n yilcha bo‘lgan edi. Nimaydi?

–O‘zim...

Qiz qo‘radan tashqariga chiqdi.

Uy burchagiga yetgach, devorga suyanib yig‘lab yubordi. U cholga achinar, cholning mashaqqatli turmushi to‘g‘risida hikoya qila olmagan uchun ezilar edi.

Ammo shu asno u inson hayoti va jasoratining allaqanday teran va botiniy mazmunini chuqur idrok qildi-da, o‘zi anglab yetmagan holda birmuncha ulg‘ayib qoldi.”¹²

Zulfiya Qurolboy qizining “O, hayot” hikoyasida ham matonatli, hayotsevar qishloq kishisining siymosi keltiriladi:

“Kampirining o‘limidan keyin chol o‘zini ancha oldirib qo‘ydi. Yaxshimi, yomonmi, har qalay ko‘z ochib ko‘rgani, juda o‘rganib qolgan ekan. Ayniqsa, so‘nggi so‘zlarini eslasa, ahzoyi-badani titrab ketadi.« Ahvolimni sezgan ekan, sho‘rlik,» derdi-yu ko‘zidan duv-duv yosh to‘kilardi. Hiyla vaqt garangsib yurdi, ammo keyin o‘zini o‘nglab oldi.« Mening

¹² Шукшин В. Чол, қиз ва офтоб. Ҳикоялар. Тошкент, 1980, 132-133-бетлар.

yoshimda ko‘p kuyinish yaramaydi, — derdi u o‘ziga-o‘zi. — Asab tolalari o‘lishi mumkin».

Chol hovlida o‘zini begonaday sezardn. Avval o‘g‘li, keyin kampirining vafotidan keyin bu uyda haqsizday bo‘lib qoldi. Faqat kelin — Alisherning ayoli oltmish besh yoshida, yerto‘laga tushayotib qoqilib ketib o‘sha yerning o‘zida til tortmay jon taslim qilgunga qadar cholning issiq-sovug‘idan xabardor bo‘lib turdi. Kir-chirini yuvib, duosini oldi. SHunga dovur chol o‘zining yoshini eslab, hechyanglishmasdanhisoblab yurardi. Kelinining o‘limidan so‘ng uning hayotida iarakandalik yuz berdi. Nevaralar, nevara kelinlarning u bilan ishlari bo‘lmay qoldi.

Goh vaqgida (juda kam hollarda), goh bevaqt choy-nonini berib turishganini hisobga olmaganda, hech kim undan hol so‘ramay qo‘ydi. Cholning ham ularga ko‘zi uchib turgani yo‘g‘u, har qalay odamgarchilik yuzasidan deganday.

Uzlaridan ko‘payishib, xona yetishmay qolganida choldan so‘ramay-netmay uni oshxona yonidagi hujraga ko‘chirib o‘tqazishganda ham u og‘rinmadi. Aksincha, ularning ustidan kulishsa-da qudrati yetdi. Hali ular hech narsadan bexabar, o‘zlarini dunyoga ustun bo‘ladi deb o‘ylashadi shekilli! Ha mayli! Chol xotirjam, jimgina, hatgo bir oz kulimsiragancha eshikdan kirgan-chiqqanlarni kuzatib qolardi. Zero, tiriklikning o‘zi katga baxt edi uning uchun. Yorug‘ dunyoda borligini his qilishning o‘zi ulkan quvonch bag‘ishlardi qalbiga.

Kunlarning birida hovlidan qiy-chuv, yigi-sig‘i ovozi eshitilib qoldi. Evaralardan biri olamdan o‘tdi shekilli! Chol to‘ng‘ich nevarasining o‘g‘lini elas-elas ko‘z oldiga keltirib, yuragi bir hapriqdi. Anchadan buyon ko‘ngli bu qadar yumshamagan edi. Nahotki, yolg‘izlik jonidan o‘ggan, yaqinparining yo‘qligi bilingan bo‘lsa? Aslida u yoshiga nisbatan ancha dadil, hovliga chiqib yurishga-da qodir edi. Biroq, uni hech kim na azasiga, na to‘yiga yo‘qlardi. Go‘yo u yo‘q, unutilgan! Odamlarning esidan chiqib ketgandek edi go‘yo. «Arzimagan mayda-chuyda tashvishlar uchun kuyib-yonishning hojati

yo‘q,—deb o‘yladi chol, ammo kirtayib, qovoqlari ichiga botib ketgan ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kildirdi.—Hammasi behuda!»

Cholning ko‘zlari xiralashib qolgan bo‘lsa-da, ong-shuuri hamon teran, deraza oynasidan tushib turgan bir tutam nur, bir parcha osmonga tikilib yotib, hamon tiriklik lazzatidan bahramand ekanligidan qalbi quvonchga to‘lardi. Yana bir muncha vaqt o‘tib, Nazar chol yoshini hisoblashdan butunlay adashib ketdi. Tishlari to‘kilib, yangi sut tishchalar chiqqaniga ham allazamon bo‘lgan. Undan keyin nevarasi olamdan o‘tdi, so‘ng evarasi! Bopo‘alarini u tanimaydi, hatto ismlarini bilmaydi.

Allaqanday chorpaxil yigitlar! «Nahotki shular mening zuryodim bo‘lsa, — deb o‘ylardi u o‘sha chorpaxil kishilarni har zamonda ko‘rib qolganida. — Evaramning nevarasimi yoki nevaramning o‘g‘limikin?»

Bora-bora chol hujra derazasidan tushayotgan bir tutam nurni ko‘rish imkoniyatidan ham mahrum bo‘ldi. Qulog‘i ham eshitishdan charchadi.

Hamma yoq zim-ziyo, tun-kunning farqi yo‘q edi. SHunda ham chol tushkunlikka tushmadi. Undan xabar olib turuvchi kishilar ham allaqachon begona odamlar! Salom yo‘q, alik yo‘q, bir kosa yovg‘onni «to‘q» etib qo‘yishadiyu, to‘ng‘illay-to‘ng‘illay chiqib ketishadi. CHol sassiq takaday badlariga urganligini yashirib ham o‘tirishmasdi. CHolning ko‘zi ojiz bo‘lmaganida, qulog‘i og‘irlashib qolmaganida ularning ahvolini ko‘rgan, shirasiz so‘zlarini eshitgan bo‘lardi, ammo baribir kayfiyatini buzmay, ularning ortidan tishsiz milkklarini ko‘rsatib tnrjaygancha kuzatib qolgan bo‘lardi.

Ovqatdan keyin bir soatmi, ikki soatmi, balki ko‘proq vaqt o‘tgach, yana birovi ilimiliq choy qo‘yib ketardi. «Qaynoq choyni ichaman deb kuyib qolmasin deyishsa kerak-da, rahma-at», deb o‘ylashga cholning fahm-farosati yetardi. Timirskilanib, bir kosa yovg‘onni ichib olib, yana joyiga cho‘zilardi. Tiriklikning barcha vositalaridan— ko‘rish, eshitish, yurishdan mahrum bo‘ldi, endi chol o‘lsa kerak deb o‘ylashdi atrofdagilar.

Bahzilar uning bir bog‘lam piyozday bo‘lib yotganini ko‘rib: «Ey xudo, namuncha xo‘rlamasang bu bechorani, nima gunohi bor ediki jonini olmayapsan,—deya nola qilishardi. — Axir o‘lolmaslik ham azob-ku!»

CHol esa ularni ko‘rmasdi, eshitmasdi, ammo g‘ayri shuuriy ravishda kimlardir tomosha qilayotganini sezib qolib, qo‘liga ilingan narsani—kosami, choynakmi olib, e shikni mo‘ljallab turib uloqtirardi.

So‘ng esa avvalgidan ham teranroq, avvalgidan ham ravshanroq mulohaza yuritib, ko‘ngli quvonchga to‘lardi: «Men endi haqiqiy hayotimni yashayapman! Men yashayapman!»¹³

Yozuvchining bu o‘rindagi badiiy xulosasi cholning “endi hayotni boshlayotgani” xususida to‘xtaladi.

Nega bunday xulosaga kelishini yozuvchi badiiy xulosalab, insonning hayotda qilishi kerak bo‘lgan o‘ziga xos farzlari mavjud. Ammo bu cholning hayoti taqdir hazili misoli keltiriladi. Kampiri yagona o‘g‘lidan keyin vafot etdi. Uning yaqinlaridan hech kim qolmadi. Nabiralari esa o‘z hayoti bilan band. Qishloq kishisi butun umrini mehnat, oila tashqivi bilan yetkazgan. Va nihoyat insonning orziqib bir umr kutgan onlari yetib keldi chol uchun—umrguzaronlik qilib yotish.

Ko‘rinadiki, har ikki yozuvchi tomonidan qalamga olingan qishloq hayotining tasviri adabiyotning bosh g‘oyasi – hayotga muhabbatni tarannum etganligida ko‘rishimiz mumkin. Stepan amaki ham, “oftobda o‘tiradigan chol” ham Holiq amaki ham hayotni sevuvchi (“O, hayot”dagi) chol ham butun umrlari dalada o‘tgan, zahmatkash mehnat qilib keksaygan kishilar. Yozuvchi V.Shukshin uchta obrazni bir-biriga badiiy mantiqni ochishda zanjir sifatida tanlab oladi. Chol – qiz – oftob.

Chol hayotsevar o‘tmish, qiz ertani yaratuvchi va kechani kelajak xotirasi uchun chizib qo‘yayotgan bugun, oftob esa bu mangu hayotning

¹³ Зулфия Куролбой қизи. Ёвузлик фариштаси. Ҳикоялар. Тошкент, 2005.235-бет.

ramzi. Bu bilan yozuvchining inson zoti har qanday mashaqqatga chidab yashayveradi, avlodlar almashinadi inson ham mangu oftob bor ekan mangu yashaydi, degan falsafiy badiiy mushohodani ilgari suradi.

Ularning hayotdagi asosiy farzlari bajarilgan tarzda keltiriladi:

Farzandlarini voyaga yetkazdilar, birovga yomonlik qilmadilar, halol mehnatlari bilan umr o'tkazdilar.

Yozuvchilar qishloq hayoti tasviridan qishloq odamlaridagi aynan mana shu fazilatlarni kuylaydi.

Xulosa

Har bir xalqning milliyligini ifodalovchi turli belgilari bor, asosi bor. Bu xususda bejiz Abdulhamid Cho'lpon "Adabiyot yashasa – millat yashaydi" deb aytgani bilan qanchalar haq edi.

Darhaqiqat, biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimiz uchun tanlab olgan ikki xalqning asl "qishloq mavzusi" tasvirining ustalari V.SHukshin va Z.Qurolboy qizi ijodida chin milliy xarakterlar qirralari bilan ochilganligi e'tiborga loyiq. Ularni o'qigan o'sha millat vakiliga emas, balki har qanday kitobxon asarlardan millat ruhini sezadi, his etadi. Zaxmatkash qishloq kishilari va ularning hayotiga o'ziga xos bir ehzoz paydo bo'ladi.

Qishloq odamlarining soddaligi, to'g'riso'zligi (SHukshinning "Qishloqlar", "Dumbul"), mehnatsevarlik, hayotsevarlik ("CHol, qiz va oftob" va "O, hayot") hikoyalarida zo'r badiiy topilma va mahoratlar bilan o'z aksini topganligini ko'ramiz.

Har ikki yozuvchi xalqining milliy urf-odatlarini chetlamay, aynan o'shalar orqali milliy mentalitetni ifodalash mushkuldir. SHu jihatlarni nazarda tungan holda V.SHukshin ham Z.Qurolboy qizi ham qishloq hayotini va undagi betakror kishilarning fazilatlarini chizgilashga intiqadilar.

Demak, olib borgan tadqiqotimizdan quyidagi umumiy xulosalarni keltirishimiz mumkin bo'ladi:

– Har ikki xalq vakilining asarlaridan ularning qishloq hayoti bilan yaxshi tanishliklari sezilib turadi va bu ruh satrlarga mohirona singdirib yuborilgan.

– asarlarda qishloq odamlarining tasviri, deganda avvalo ularning kiyinishidan tashqari quyidagilar mahalliy koloritni ifoda etadi:

- 1) qiliqlari (xatti-harakatlari, jestlari) odatlari;
- 2) muloqot madaniyati;
- 3) milliy odatlar.

Milliy kiyimlardan keyin milliylikni o'sha xalqning jestlari ham ko'rsatib turadi. Chunki har bir xalqning o'iga xos jest belgilari mavjudligi ma'lum va shu jestlargina ulargagina xoslikni anglatadi. Masalan: hindlar hamsuhbatining gapini mahqullagan maqomida boshlarini ikki yonga sarak-sarak etib turadilar. Boshqa ko'pgina xalqlarda bu inkor mahnosini anglatadi. Yoki arab xalqlarida qo'lni paxsa qilib gapirishning o'ziga xos ahamiyati ham shunday hodisadir.

Rus xalqining qishloq odamlari xatti-harakatidagi bunday xussiyatni V.SHukshin zo'r mahorat bilan tasvirlab, shu orqali qishloq hayotini va undagi odamlarning sodda va samimiy qiyofasini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. SHunday xususiyatlardan biri bu **jestlar, qiliq-harakatlardir**.

E'tibor qilinsa, rus milliy madaniyati rus mentalitetining negizida aks etib turuvchi tabiiy omildir. Bu jihat yozuvchi Vasiliy SHukshin e'tibor markazida turadi. Masalan, muloqot chog'ida turlicha jestlardan foydalanib javob berishni olaylik. Ruslarning bunday odatlari vositasida SHukshin qishloq odamlarining soddaligini ifodalashga muvaffaq bo'ladi.

Qishloqda odamning qazo qilish manzarasi har ikki yozuvchi qalamida chuqur drammatizm sifatida talqin etiladi. Bunda bir insonning hayot bilan vidolashuvi ikkinchi darajaga aylanib, uning marosimini o'tkazish muhimroq bo'lib qolganligi mualliflar tomonidan zo'r mahorat bila tasvirlanadi.

Zulfiya Qurolboy qizi ham bu mavzuga e'tiborini qaratib, joni uzilish epizodini tasvirlab beradi. Stepan amaki singari Holiq amakining ham joni uzilish payti tasvirlangan bu epizodda umr bo'yi faqat mehnat qilib, o'z qishlog'idan boshqa yoqqa erkin chiqolmay vafot etayotgan oddiy odamning chuqur drammatizm yotadi. SHu o'rinda diniy odat – ruhini poklash masalasiga ham e'tibor beriladi.

Yozuvchilar tomonidan qishloq kishisining o'ziga xos jihatlaridan bir shunday tasvirlanganki, bu sodda oamlarning hayotining o'zi drammatizm ekanligi kitobxonga oydinlashadi. Bu ayniqsa ularning jon taslim

qilayotganlarida ham farzandlari haqida o'ylashlari nuqtasida yaqqol ko'rinadi. Stepan amaki uzoqdagi o'g'li uning o'limiga kelib ortiqcha sarf qilib, keyinchalik qiynalib yurmasligi kerakligini kampiriga aytsa, Holiq amaki esa qizlariga uning o'limida yig'lab biror kasallik orttirib olmasliklari haqida tashvishlanadi.

Demak, har ikki yozuvchi tomonidan qishloq hayotining tasviri real voqelikka monand ravishda qishloq odamining dramatzizmining ifodasi tarzida yoritib berishga muvaffaq bo'lingan. Rus millatida ha o'zbek millatida ham farzand o'z jonidan qimmat zaylida munosabat mavjudligi aniqlanadi.

Yozuvchi tomonidan oldiga qo'yilgan g'oyaviy maqsadning muvafaqqiyatli chiqishida albatta uning badiiy mahorati bilan bog'liq hodisa sifatida keltiriladi. Badiiy mahorat esa zamon, makon va uni haraktaga keltiruvchi omillardan unumli va o'rinli foydalanishi bilan izohlanadi.

Insonning hayotsevarligi uning har qanday qiyinchilik oldida ham o'limga taslim bo'lmay hayotga intilib, kuchli iroda bilan hayotga tashnaligi V.SHukshinning "CHol, qiz va oftob" hikoyasida hamda Zulfiya Qurolboy qizining "O, hayot" hikoyalarida tasvirlab berilgan.

SHunday qilib, har ikki yozuvchi tnlagan qishloq hayoti mavzusining qiyoslab tahlil qilishdan quyidagi natijalarga erishildi.

1. Ikki xalqning o'zigagina xos bo'lgan jest (xatti-harakatlari) mavjudligi.
2. Ikki xalqda ham qishloq yangiliklari ko'chada ayollar to'plangnida tarqalishi;
3. Qishloqda biror oilaning kirdikorlari ovoza bo'lmay qolmasligi. SHuning uchun bu jarayon odob-ahloqning o'ziga xos normalari vujudga keltiruvchi omil ekanligi;

4. Qishloq odamlari butun umri qishloq yerlarida hosil uchun kurashib o'tishi, (ruslarda bug'doy uchun, o'zbeklarda paxta uchun) o'z manfaatidan o'zgarar manfaatini yuqori qo'yishi;

5. qishloq kishisi butun umri shu qishloqda yashab o'tishi-yu, hatto qazo qilayotgan damda ham o'z joniga emas, balki yaqinlariga og'ir bo'lmasligi haqida qayg'urishi;

6. qishloq odamlari tabiat quchog'ida uning bir bo'lagi sifatida o'zlarini his qilishlari va shundan baxtiyor yashashlari;

7. Eng muhimi qishloq odamlari samimiy, to'g'riso'z, zashmatkash insonlar sifatida halollikni qayg'urib yashaydigan insonlar sifatida tasvirlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
2. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Toshkent, Fan, 1992.
3. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent, O'qituvchi, 1967.
4. Akobirov S. va b. O'zbek tilining izohli lug'ati. M., 1981.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002.
6. Hamdam, Ulug'bek. Uzoqdagi Dilnura. Toshkent, Akademnashr, 2010.
7. Homidiy H., Abdullaeva Sh. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent, O'qituvchi, 1976.
8. Hoshimov O'. Saylanma. T., 2010.
9. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1999.
10. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. T., «Fan», 1966. B.: 164
11. Qurolboy qizi Zulfiya. Yovuzlik farishtasi. Hikoyalar. Toshkent, 2005.
12. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, "Akademnashr", 2010
13. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, "Akademnashr", 2010.
14. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent, 2004.
15. Sharafiddinov O. Cho'lpon. Toshkent, Cho'lpon, 1991.
16. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T., 1989.
17. Shukshin V.. Chol, qiz va oftob. Hikoyalar. Toshkent, 1980
18. Shukurov N. va b. Adabiyotshunoslikka kirish. T. 1979.
19. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Darslik, 2-nashri. T., 1986.
20. Sultonov M. Abdulla Qahhor uslubi. Toshkent, 1967.
21. Tog'ayev O. Adiblar va janrlar. Toshkent, 1976
22. Umurov H. «Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi» T., «Fan», 1983.

23. Usmon O., Doniyorov R. O'zbek tilidagi ruscha–internatsional o'zlashtirma so'zlar izohli lug'ati. Toshkent, Fan, 1965.
24. www.lib.ru.
25. www.lib.uz.